Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish bola tomonidan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir. Bolalarni maktab ta'limiga o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga ham bog'liq bo'ladi. Maktab ta'limiga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga berilgan ta'lim va tarbiyaning muhim yakunidir. Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi maktab bola oldiga qo'yadigan talablar majmuasi orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni – o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishga tayyor bo'lishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi [7].

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi va atrofdagilar bilan munosabat tizimining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq, endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan to'rtta jiddiy munosabat talab etiladi. Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi. Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak.

Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqarokligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlar orasida o'z o'rnini topa olmaydilar. Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi cheklangan, xotirasi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Bola o'qishni butun mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida anglay boshlaydi. Bola o'quvchi bo'lganidan so'ng, maktabgacha ta'lim yoshidagiga nisbatan sifat jihatdan yangi o'rin egallaydi.

Ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati – maktab ta'lim tizimini doimo takomillashtirib borishidir. Maktab ta'limiga 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki ilgari yillarga nisbatan aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z xatti-harakatini boshqarish, katta ishonchlilik qobiliyatini talab qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi – ta'lim-tarbiyaviy ishning butun sistemasida bolalarda maktab ta'limi talablariga to'liqroq muvofiq keluvchi maktabda o'qishga tayyorgarlikni tarkib toptirishdir. Shunga ko'ra psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlanish sifati sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatdan – maktabga, o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik va "maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik – bolalar bog'chasining maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishining muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga

tayyorgarlik – bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, irodaviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitiga va o'quv materialini o'zlashtirishga imkon yaratadi. Umumiy tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik – bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqidan bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi, bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi, irodaviy va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'luvchi asoslangan tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligining barcha majmuasi bolani sinf jamoasiga olib kirish, maktabda o'quv materialini ongli faol egallash, keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi. Bolaning maktabga maxsus ravishda tayyorgarligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorgarligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlash yuzasidan o'tiladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnayotgan bola yangi turmush tarziga, kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Bolaning maktabda o'qishga umumiy tayyorgarligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari – ma'naviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir. Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik bolaning maktabga bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallashga hamda o'zining o'qituvchi, sinfdoshlar bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishiga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik mazmuni – o'quvchi tutgan o'rnidan kelib chiquvchi bola shaxsi hamda xulqiga qo'yiladigan talablarga ko'ra aniqlanadi. Bu talablar maktabda o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'quvchi oldiga o'quv majburiyatlarini mustaqil va mas'uliyatni his etgan holda bajarish, tartibli va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab etadi. Bu yuqori talablarni bajarishga tayyorlash – oldindan maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan davomli, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ish jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati, qoida yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganga qarshi holda oxirigacha bajarish ko'nikmasi diqqatga loyiqdir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikni rivojlanish asosi maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'ysinuvchilar tashkil qiladi. Sabablarning o'zaro bo'ysingani katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z istaklarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongli intilishlariga aloqadordir. Tabiiyki, maktabgacha tarbiya yoshida bolaning xulq-atvori ixtiyoriylikning yuqori darajasi bilan ajralib turmaydi, ammo bu davrda maktabdagi yangi xulq-atvor turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvor mexanizmining tarkib topishi muhimdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish: maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish uchun o'yinlar, kundalik faoliyatlar va maxsus mashqlar qo'llaniladi. Maktab ta'limida nutq terapiyasi: maktab davrida nutq nuqsonlarini tuzatish uchun o'qituvchi va nutq terapevtlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatlar majmui. Ota-ona va o'qituvchilar uchun ko'rsatmalar: nutq nuqsoniga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashda ota-onalar va o'qituvchilarning roli juda muhimdir. Ular uchun ta'lim va tarbiya jarayonida qanday yordam berishlari mumkinligi haqida ko'rsatmalar mavjud. Nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar: pedagogik yondashuvlar bolalarning nutqini va umumiy o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi [2]. Inklyuziv ta'lim: nutq nuqsoniga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim muhiti, ularning o'z tengdoshlar bilan birgalikda ta'lim olishini ta'minlaydi va ijtimoiy integratsiyasini rag'batlantiradi. Nutq nuqsonlarini aniqlash va oldini olish: nutq nuqsonlarini erta aniqlash va ularning oldini olish strategiyalari bolalarning nutqiy rivojlanishida muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Maktabga tayyorgarlikda nutq mashqlari: nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda foydalaniladigan turli nutq mashqlari va faoliyatlar. Nutq nuqsonlariga ega bolalar uchun o'quv materiallari va resurslar: o'qituvchilar va ota-onalar uchun mo'ljallangan maxsus o'quv materiallari va resurslar bolalarning nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Nutq nuqsoniga ega bolalar bilan kommunikatsiya qilish usullari: samimiy va samarali kommunikatsiya, nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashda muhim omildir. Maktabga tayyorgarlikda o'yinlar va interaktiv faoliyatlar: o'yinlar va interaktiv faoliyatlar nutq rivojlanishini rag'batlantirish va bolalarni maktabga tayyorlash

jarayonini qiziqarli qilishda muhimdir. Psixologik yordam va maslahat: nutq nuqsoniga ega bolalar va ularning oilalari uchun psixologik yordam va maslahat ta'lim va tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishini kuzatish: bolalarning nutq rivojlanishini muntazam kuzatib borish, ularning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlashda asosiy vositadir [3]. Nutq nuqsonlariga ega bolalar uchun maxsus dasturlar va strategiyalar: nutq nuqsonlarini tuzatish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturlar va strategiyalar. O'qitish metodlari va texnologiyalari: zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalari nutq nuqsoniga ega bolalarning ta'lim jarayonini samarali qilishda foydalaniladi. Kelajakdagi ta'lim va kasbiy yo'nalishlarni rejalashtirish: nutq nuqsoniga ega bolalarning kelajakdagi ta'limi va kasbiy yo'nalishlarini rejalashtirish ularning ijtimoiy moslashuvi va muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlashda muhimdir. Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar juda muhim rol o'ynaydi. Bolalar o'zlarining nutqiy farqliliklari sababli turli psixologik qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, shu jumladan o'z-o'zini qabul qilishda qiynalish, ijtimoiy izolyatsiya hissi va o'ziga bo'lgan ishonchsizlik. Shuning uchun, ularni maktab hayotiga tayyorlash jarayonida bu psixologik qiyinchiliklarni yengishga yordam berish muhimdir. Nutq nuqsoniga ega bolalarda o'z-o'zini qabul qilish muammolari keng tarqalgan. Ularning o'ziga bo'lgan ishonchi kamayishi mumkin, chunki ular boshqalar tomonidan qabul qilinmaslikdan yoki masxara qilinishdan qo'rqishadi. Maktab muhitiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ularni o'ziga ishonchli bo'lishga o'rgatish, ularning kuchli tomonlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish juda muhimdir [4]. Nutq nuqsoniga ega bolalar ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki ular o'rtoqlar bilan muloqot qilishda qiynalishadi. Maktabga tayyorgarlik jarayonida ularni ijtimoiy ko'nikmalar va muloqot strategiyalarini o'rgatish orqali ularning tengdoshlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'llab-quvvatlash va tushunish. Ota-onalar va o'qituvchilar nutq nuqsoniga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashlari va ularning his-tuyg'ularini tushunishlari juda muhim. Ularga ishonch baxsh etish va ularning muvaffaqiyatlarini nishonlash, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Sabr–bolalar nutq mahoratlarini rivojlantirish vaqt talab etadi. Ota-onalar va o'qituvchilar sabrli bo'lishlari va jarayonni ijobiy ruhda qo'llab-quvvatlashlari kerak. Ijobiy rag'batlantirish–nutqiy rivojlanishdagi kichik yutuqlarni ham nishonlash, bu bolalarga ularning harakatlarining qadrlanishini his etishga yordam beradi. Muhitni moslashuvchan qilish–maktab va uy muhitini bolaning nutqiy ehtiyojlariga moslashtirish, ularning o'rganish va ijtimoiylashish jarayonini osonlashtiradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasi uchun juda muhimdir. Bolalarni o'ziga ishonchli qilish, ularga ijtimoiy ko'nikmalar va muloqot strategiyalarini o'rgatish, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish – ularning maktabda muvaffaqiyatli va baxtli bo'lishlarini ta'minlaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda pedagogik yondashuvlar, ularning ta'limiy muvaffaqiyatini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar individual ta'lim rejalari tuzish, ta'lim metodlarini diversifikatsiya qilish va bolalarni o'ziga ishonchli qilish kabi strategiyalarni o'z ichiga oladi. Pedagogik yondashuvlar bolaning nutqiy rivojlanishiga qo'shimcha yordam ko'rsatish bilan birga, ularning ijtimoiy integratsiyasi va o'z-o'zini qabul qilishini ham rag'batlantiradi. Har bir bola noyobdir va ularning ta'lim ehtiyojlari ham xilma-xildir. Nutq nuqsoniga ega bolalar uchun individual ta'lim rejalari (ITR) tuzish, ularning o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlaydi. ITR quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin [5]:

- maqsadli nutq terapiyasi sessiyalari;
- maxsus o'qitish metodlari va materiallarini qo'llash;
- o'qituvchi va logoped bilan muntazam uchrashuvlar;
- bolaning o'rganish uslubiga moslashgan ta'lim strategiyalari.

Nutq nuqsoniga ega bolalarga ta'lim berishda turli xil metodlardan foydalanish muhimdir. Bu metodlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- O'yinlar, bolalarning nutq mahoratlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'yinlar orqali bolalar yangi so'zlarni o'rganishlari, nutqiy amaliyotlarni bajarishlari va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.
- Rasmlar, video materiallar va audio yozuvlar bolalarga yangi tushunchalarni o'rganishda yordam beradi. Bu materiallar ta'lim jarayonini bolalar uchun qiziqarli va tushunarli qiladi.
- Texnologiya vositalari, jumladan, kompyuter dasturlari va ilovalardan foydalanish bolalarning nutq mahoratlarini mustaqil ravishda rivojlantirishlariga imkon beradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda ularning oʻziga ishonchini oshirish juda muhimdir. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- Kichik yutuqlarni ham nishonlash bolalarning motivatsiyasini oshiradi va oʻziga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi;
- Bolalarni har qanday urinishi va yutuqlari uchun maqtash, ularning oʻqishga boʻlgan qiziqishini saqlab qolishda muhimdir;
- Tengdoshlari bilan oʻzaro hamkorlik qilish imkoniyatlari yaratish, bolalarning ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantiradi va ularni jamoaviy faoliyatga jalb etadi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda pedagogik yondashuvlar, ularning ta'lim va ijtimoiy muvaffaqiyatlarini maksimal darajada ta'minlash uchun zarur boʻlgan koʻnikma va strategiyalarni taqdim etadi. Bu yondashuvlar, bolalarning nutq mahoratlarini rivojlantirish bilan birga, ularning shaxsiy oʻsishiga ham hissa qoʻshadi. Maktabga tayyorlash jarayonida pedagogik yondashuvlar nutq nuqsoniga ega bolalarning ta'limiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu jarayon, ularning nutqiy muammolarini hisobga olgan holda, ta'limiy va ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Quyida nutq nuqsoniga ega bolalarni maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda foydalaniladigan asosiy pedagogik yondashuvlar keltirilgan: individal ta'lim rejalari (ITR). Har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, shaxsiy ta'lim rejalari ishlab chiqiladi. Bu rejalarda bolalar uchun eng muhim boʻlgan sohalarga e'tibor qaratiladi, masalan, nutqni rivojlantirish, ijtimoiy koʻnikmalar va oʻqish-yozish koʻnikmalarini shakllantirish.

ITR, oʻqituvchilar, logopedlar va ota-onalar oʻrtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlikni talab qiladi. Bu yondashuv, bolaning ta'lim jarayonida erishgan yutuqlarini kuzatib borish va zarurat tugʻilganda rejalarning moslashuvchan tarzda yangilanishi imkonini beradi. Ijtimoiy va akademik koʻnikmalar. Nutq nuqsoniga ega bolalarni tengdoshlari bilan oʻzaro samarali muloqot qilishga oʻrgatish, ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiylashuvi ustida ishlash. Buning uchun guruh faoliyatlari, oʻyinlar va ijtimoiy ssenariylar ishlatilishi mumkin.

Nutqiy muammolarni hisobga olgan holda, oʻqish, yozish va matematika kabi asosiy fanlarni oʻrgatishda maxsus usullar va materiallardan foydalanish. Bu, bolalarga oʻqish va yozishni oʻrganishda qoʻshimcha yordam va moslashuvchan yondashuvlarni taqdim etadi [8]. Muhitni moslashuvchan qilish. Maktab muhiti, nutq nuqsoniga ega bolalarni qoʻllab-quvvatlash uchun moslashtirilishi kerak. Bu, ular uchun qulay va xavfsiz oʻrganish muhitini yaratishni oʻz ichiga oladi, shuningdek, oʻqituvchi va tengdoshlari tomonidan ularga koʻrsatiladigan sabr va tushunishni ta'minlaydi. Oʻqitish jarayonida texnologiyadan va maxsus ta'lim vositalaridan foydalanish, masalan, nutqni rivojlantirish uchun dasturlar, oʻqishni osonlashtiruvchi qurilmalar va boshqalar. Bu vositalar, nutq nuqsoniga ega bolalarning oʻzlarini ifoda etish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Oʻqituvchilar, nutq nuqsoniga ega bolalarni ta'lim jarayoniga samarali jalb qilish uchun maxsus ta'lim va metodikalarni oʻzlashtirishlari kerak. Bu ularning pedagogik mahoratini oshirish va bolalarga eng yaxshi ta'limiy tajribani taqdim etish imkonini beradi. Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda pedagogik yondashuvlar, ularning ta'lim va ijtimoiy integratsiyasini yaxshilashga qaratilgan. Har bir bola uchun individual yondashuv, ularning oʻziga xos ehtiyojlarini hisobga oladi va ularning maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlash boʻyicha quyidagi amaliy tavsiyalar va strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, nutq terapiyasini qoʻllab-quvvatlash: bolalarni uyda ham, maktabda ham muntazam ravishda nutq terapiyasiga jalb qilish ularning nutqiy rivojlanishini tezlashtiradi. Ota-onalar va oʻqituvchilar logopedlar bilan yaqin hamkorlik qilishi, ularning tavsiyalarini kundalik ta'lim jarayoniga qoʻllashi muhimdir. Ikkinchidan, ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirish: bolalarni guruh faoliyatlariga, jumladan, oʻyinlar, suhbatlar va boshqa ijtimoiy mashgʻulotlarga jalb qilish ularning ijtimoiy koʻnikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar orasida roʻl oʻyinlarini tashkil qilish esa ularning oʻzaro muloqot qilish qobiliyatini va oʻzini ifoda etish koʻnikmalarini yaxshilaydi. Uchinchidan, oʻqituvchilar va ota-onalar uchun oʻquv seminarlarini tashkil qilish zarur. Nutq nuqsoniga ega bolalar uchun ta'lim berishning maxsus usullarini oʻz ichiga olgan seminarlar ularni qoʻllab-quvvatlashda samarali vosita boʻladi. Oʻqituvchilar va ota-onalar uchun birgalikdagi seminarlar ularning harakatlarini muvofiqlashtirish va bir xil yondashuvlarni qoʻllashda yordam beradi. Toʻrtinchidan, texnologiyadan foydalanish: interaktiv oʻquv dasturlari va ilovalar, jumladan, nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi oʻyinlar va vizual dasturlar bolalarning nutqiy mahoratlarini oshirishda samarali vosita boʻlishi mumkin. Oʻqishni va muloqotni yengillashtiruvchi vizual hamda ishorali materiallardan foydalanish esa bolalarga oʻz fikrlarini osonroq ifoda etish imkonini beradi. Beshinchidan, ijobiy muhit yaratish: bolalarni har qanday yutuqlari uchun maqtash

va rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va yangi ko'nikmalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Tengdoshlarini nutq nuqsoniga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash jarayoniga jalb qilish esa ularning ijtimoiy integratsiyasini yaxshilashga yordam beradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlash – ularga moslashuvchan, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhitni ta'minlash orqali ularning ta'lim va ijtimoiy rivojlanishlarini maksimal darajada rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Amaliy tavsiyalar va strategiyalar ularning nutqiy, akademik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalar uchun maktabga tayyorgarlik – bu ularga kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy va akademik hayot qurishlariga imkon beradigan muhim jarayondir. Ushbu jarayonni yaxshilash uchun pedagogik, psixologik va amaliy yondashuvlar hamda strategiyalar zarur. Bu yondashuvlar bolalarning o'zlarini maktabda qulay his qilishlari va o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etishlarini ta'minlaydi. Maktab muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya, nutq nuqsoniga ega bolalarga ularning cheklovlariga qaramay, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va tengdoshlar bilan teng sharoitda ta'lim olish imkonini beradi. Bu jarayon o'qituvchilarga, logopedlarga, ota-onalarga va ta'lim tizimiga qo'llanma sifatida xizmat qiluvchi muhim ma'lumot va resurslarni taqdim etadi. Ushbu integratsiya jarayoni har bir bola uchun alohida yondashuvni talab qiladi, chunki har birining ehtiyojlari, imkoniyatlari va qiziqishlari farq qiladi. Bolalarning rivojlanishi va o'zlarini ifoda etish qobiliyatini maksimal darajada oshirish uchun pedagoglar va ota-onalar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishi, sabrli va qo'llab-quvvatlovchi bo'lishlari kerak. Shuningdek, ta'lim muassasalari nutq nuqsoniga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning ta'lim olishini yengillashtirish uchun zarur bo'lgan moslashuvchan va inklyuziv yondashuvlarni amaliyotga joriy etishlari muhimdir. Bu har bir o'quvchi uchun teng va adolatli ta'lim imkoniyatlarini ta'minlaydi. Umuman olganda, nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorgarlik – ularning kelajakdagi yutuqlari uchun zarur bo'lgan muhitni yaratishda hamjamiyatning barcha a'zolarining birgalikdagi harakatlari va mas'uliyatini talab qiladi. Bu jarayon orqali har bir bola o'zining to'liq potensialini ochib berish imkoniyatini topadi. Bu esa jamiyatimizning umumiy farovonligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayupova, M.Yu. Logopediya. – Toshkent, 2019.
2. Mo'minova, L.R. Logopediya tekshiruvi va bolalarni o'qitish. – Toshkent, 1992.
3. Mo'minova, L.R. Logopediya. – Toshkent, 1994.
4. Mo'minova, L.R., Ayupova, M.Yu. Nutq terapiyasi. – Toshkent, 1993.
5. Mo'minova, L.R. Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. – Toshkent, 2012.
6. Mo'minova, L.R. Maxsus psixologiya. – Toshkent, 2016.
7. Normatova, M. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash. – Toshkent: Impress Media nashriyoti, 2025.
8. Hamidova, M.U. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2018. – 95-bet.
9. Nurkeldiyeva, D.A., Hamidova, M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. – Toshkent, 2016. – 109-bet.
10. Asqarova, Sohibaxon, va Muslimaxon Muhammadjonova. "O'yin ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik vositasi sifatida." Scientific Progress, 2021, №2(2): 317–321.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.